

Narzullayev Bahrom Xolboy o'g'li

Guliston Davlat Universiteti. ijtimoiy iqtisodiy fakulteti. Tarix 74-20-guruh talabasi

Termiz shahri o'z tarixi davomida turli nomlar bilan atalgan. Shaxarning tarixga kirgan eng qadimgi nomi Tarimta (trmd-tarmid) bo'lgan. Bu nom dastlab 1969-yili Afg'onistonning Lag'mon vodiysida topilgan xind podshosi ashoka (mil.avv.273-236.) ning oromiycha bitilgan tilda olinadi.⁹

Bundan tashqari, Termiz-grek-Baqriya davlati davrida Termiz "Tarimta" nomi bilan atalgan. Makedonskiyning istilochiligi davrida "Aleksandriya" deb atalgan. Somoniylar davrida "Shaxri somoniy" deb xam atalgan. X asrning oxirida shaxar yana Termiz deb ataladi. Termiz nomi "Avesto" yozuvlarida tilga olinadi.

Yana shuningdek, Kushon davrida budda yozuvi matnini tibek tiliga tarjima qilingan muallif "Baxt daryosi bo'yidagi Tarimta shaxridan Dxarmamitra" deb qayt etadi. Bu yerda ham shaxar Tarmita deb ataladi.

Termiz shaxri mil.avv.293-yili ko'chmanchilar tomonidan keyinroq Salavkiylar hukimdori Antiox I (mil avv.281-261) tomonidan qayta tiklanib Antioxiya-Tarmita nomini olgan.¹⁰ V.Xenning Qoratepadan topilgan o'rta fors yozuvidagi Antiox so'zining shahar nomining bir qismi bolgan deb taxmin qiladi. Uning yozishicha shahar uzoq muddat Antioxiya-Tarmita degan nom bilan ma'lum bo'lgan. Antioxiya-Tarmita nomi "Peftingor jadvallari" hamda Ravennalik nomalun geografning milodiy VII asrga oid xaritasida ham qayd etilganligi yuqoridagi fikrga dalil bo'la oladi. Termiz shahri ilk o'rta asr manbalarida Damo, Syuan Szyanda Tami XIII asrga oid "Kang-Mu" asarida Ti-li-mi, "Yuan-shi" asarida esa Gi-li-ma deb ataladi. Qadimgi Eron va Arman manbalarida Dirmat, Prakrit manbalarida Darmita, "Hudud al-Olam" asarida esa Tirmidh shaklida yoziladi¹¹. Mir Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha Termiz qadimda Barbar nomi bilan atalgan. Rivoyatlarga qaraganda o'tmishda shaharda shu qadar ko'p odam yashaganki ularning shovqin-suroni go'yoki Balx shahriga ham eshitilib turgan. Shu bois Termiz shahrini "G'ulg'ula" ham deb atashgan.

Termiz shahri 1220-yilning kech kuzida Chingizxon boshliq mug'il bosqinchilariga juda qattiq qarshilik ko'rsatgan. Shaharliklar orasida birorta ham xoin chiqmagan. Termizliklarning fidoyiligi butun sharq olamiga mashhur bo'lgan. Shu sabab shahar "Madinat ur-Rijol", ya'ni "Mardlar shahri" nomini olgan.¹²

⁹ Лившиц В.А. К интерпретации бактрийских надписей из Кара-тепе // В кн: "Буддийский надписей из Кара-тепе // В кн: «Новые находки на Кара-тепе в Старом Термезе». Москва, 1975, стр. 47.

¹⁰ Ставиский Б. Я. Кушанская Бактрия. Проблемы истории и культуры. Москва, 1977, стр. 89.

¹¹ Hududal-Alam (Therereasonsoftheworld), apersiangography. Translated and explained by V. Minorsky. — London, 1937, § 25, p. 114, №22.

¹² Массон М. Е. Работы Термезской археологической комплексной экспедиции в 1937 и 1938 гг. Труды АН УзССР. Серия 1. Термезская археологическая экспедиция. Том 2, Ташкент, 1945, стр.

Mug'illar shaharni butunlay vayron etgach , eski Termiz o'z o'rnida qaytib tiklanmadi. 1878-1879-yillarda Termiz shahrida bo'lgan rus olimi L.I.Yarovskiy Pattakesar kechuvidan 5-6 verst uzoqlikda eski Termiz xarobalari yastanib yotganligi va bu xarobalar joyi “ Xaybar” deb atalishini ma'lum qiladi.

XIV asr 30-yillarda movarounaxrda bo'lgan arab sayoxi Ibn-battutaning yozishicha, mo'g'illar bosqinidan so'ng, daryodan 2 milyan (1 milyan-1852 metr) yarida yangi shaxar barpo etildi va u Termiz deb ataladi. Shaxarni qayta tiklanganlar shaniga unga “Madinat ar-rijol” (“erlar shaxri”) deb qiyos berishadi. Bu nom XIV asrda zarb etilgan tangalarda xam uchraydi. I.V. Mushketov shaxrning “Madinat ur-rijol” “Termiz va Zunnunobod” kabi nomlar bilan atalganligini qayd qiladi. Ammo shaxarning juda ko'p ishlatilgan nomi “Tirmiz” yoki “at-Tirmiz” bo'lgan. Bu nom arab va turk manbalarida qayd etiladi. Termizda 12 kun yashagan Samoniy, garchi bazan “Turmi” shaklida uchrasa ham adabiyotlarda “Tirmiz” nomi qabul qilinganligini qayt etadi. Samoniy gaplariga qaraganda , mahalliy aholi shahar nomini odatda “Tarmiz” shaklida talaffuz etgan. Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Termiz shahri “Termit” deb atalib , u “Uzoq, oxir ” manosida izohlangan. 1877-yilda Avstriyalik olim V. Tomoshik Termiz nomini qadimgi Avestocha “Taro maetha “ - ya'ni daryoning narigi sohilidagi manzil degan so'zdan olingan fikrni ilgari suradi. Arxeologlarning fikricha, bu manzilgoh hususiyatini afsuski aniqlab bo'lmaydi chunki unda o'sha davrga oid mudofa inshoati hali ham topilgani yo'q. S. Qorayev Termizni yunoncha – “Termos” ya'ni “issiq” so'zi bilan bog'laydi. Ayrim tarixchilar Termizning shakllanishini Yunon-Baqtriya podshosi Demitriyning nomi bilan bog'laydi. Shuningdek , shahar asoschisi podshoh Demitriy nomi asosida Demitriy , Dermita, Darmita nomi bilan keyinchalik Termita, Termit, X asrdan boshlab esa Termiz nomi bilan atalganligini takidlaydilar. Termiz shahrining tarixi haqida ayrim afsonalar mavjud aytishlariga qaraganda Yunon askarlari shaharni bir necha kun qamal qilib turgan. Shahar mustahkam baland devor bilan o'ralganligi sababli shaharni bosib ololmaydilar , oxiri xiyla ishlatganlar –shahar boshliqlarini qo'lga olib , qarshilik ko'rsatganlarni esa katta ibodatxonaga qamab yoqib yuborganlar . shaharni dushmanlar bosib olgach, shu hududdagi aholi ibodatxona ichidagi insonlarga achinishib biror kishi yoki tirik jon qoldimi ?-deb qichqirishganlar . Shu vaqtda ibodatxona ichidan “Biz tirikmiz degan ovoz chiqqan. Aynan shu so'z bora bora “Termiz bo'lib ketgan deyishadi. Albatta bu afsona haqiqatdan uzoq . Shahar dastlab Tarmita deb atalgan. Shunday qilib Termiz Balx shahrining yarimi daryoning narigi tomonidagi qismi deb hisoblangan. Termiz tumanidagi “Namuna “ qishlog'i hududida milodimizning VI-VII asrida g'ishtdan qurilgan juda katta “Qari qiz “ binosining xarobalari bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. Ташкент, 1982, стр. 44.

Мушкетов И.В. Туркестан. Геологические и орографические описание, по данным, собранным во время путешествий с 1874 по 1880 г., в двух частях, том 1, СПб, 1886, стр. 577.